

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, O.Raxmatov</b> Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
<b>B.Shermuhammadov, D.Namozova</b> Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
<b>B.Shermuhammadov, B.Baratov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari .....	18
<b>D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova</b> Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
<b>B.Qurbonova</b> Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish .....	25
<b>I.Siddiqov</b> Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	29
<b>A.Xo'jayev</b> Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish .....	33
<b>X.Qodirov</b> Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari .....	38
<b>B.Baydjanov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi .....	42
<b>A.Turaxanov</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	49
<b>R.Madaliyev</b> Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
<b>X.Yulbarsova</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	56
<b>A.Soyibnazarov</b> Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
<b>S.Kamchiyev</b> Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
<b>N.Mamatqulova</b> Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari .....	71
<b>S.Sulaymanova</b> Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
<b>M.Aripjanova</b> Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili .....	80
<b>D.Yo'ldosheva</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari .....	83
<b>N.Dusimbetova</b> Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
<b>T.Turgunbayev</b> Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari .....	92
<b>N.Yuldasheva</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar .....	95

## BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

## PEDAGOGICAL BASES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL-ANALYTICAL COMPETENCE IN FUTURE HISTORY TEACHERS

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Siddiqov Ilyosjon Baxromovich

– Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda intellektual faoliyat, tarixiy tarbiya, emotsionallik, motivatsion faoliyat, munosabat motivatsiyasi hamda ijtimoiy-psixologik, pedagogik omillarning muhim o'rin tutishi tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье анализируется значение интеллектуальной деятельности, исторической образованности, эмоциональности, мотивационной деятельности, мотивации отношения, а также социально-психологических, педагогических факторов в развитии информационно-аналитической компетентности будущих учителей истории.*

**Abstract**

*This article analyzes the importance of intellectual activity, historical education, emotionality, motivational activity, attitude motivation, and socio-psychological, pedagogical factors in the development of informational-analytical competence of future history teachers.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, tarixni anglash, informatsion-analitik kompetentlik, intellektual ko'nikma, emotsiya, motivatsiya, munosabat motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik munosabat, pedagogik omil, tarixiy tarbiya.

**Ключевые слова:** качество образования, понимание истории, информационно-аналитическая компетентность, интеллектуальные способности, эмоции, мотивация, мотивация отношений, социально-психологические отношения, педагогический фактор, историческое образование.

**Key words:** quality of education, understanding of history, informational-analytical competence, intellectual skills, emotion, motivation, attitude motivation, socio-psychological attitude, pedagogical factor, historical education.

**KIRISH**

Bugungi kunda bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish asosida ularda tarixiy ma'lumotlar, faktlar va yondashuvlarga tahliliy va tanqidiy munosabatini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetensiyasi deganda, sifat jihatdan yangi bilimlarni o'zlashtirish maqsadida xilma-xil tur va shakldagi axborotlarni analitik-sintetik qayta ishlash jarayonida mavjud bilim, ko'nikma va shaxsiy tajribasini qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Shuningdek, o'z navbatida informatsion-analitik kompetensiya metodik jihatdan faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanishni taqozo etadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisi har qanday sharoitda ham tarixni anglashda uning tashkilotchisi va faol ishtirokchisi, boshqacha aytganda, subyekti bo'lgan inson qobiliyatini, aql-zakosini, intellektual imkoniyatlarini va umuman olganda, insoniy qadriyatlarini bilish, unga xolis baho berish uchun fikrga aylanayotgan qarashlar to'g'ri asoslangan negiz tufayligina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosaga kelishlari lozim. Chunki inson tufayligina tarixiy jarayonlar haqiqiy ma'noda o'zining insonparvarlik mohiyatini, umuminsoniy qadriyatlarini to'liq namoyon etishi mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Zamonaviy sharoitda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, psixologik-pedagogik va metodik yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. O'zbek olimlaridan O.G'.Davlatov, A.F.Ismailov, Q.R.Shonazarovlar bo'lajak tarix o'qituvchilarining maktab o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash va metodik tayyorgarlik ishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar olib borishgan[6;12;24].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida B.A.Abdikarimov, A.M.Abdirov, G.D.Baubekova, V.I.Andreyev, S.D.Yakusheva, I.A.Zyazyuna, N.N.Nikitina, G.V.Bragina, V.V.Davidov,

V.YE.Jabakov, L.V.Zanina, N.P.Menshikov, M.V.Korepanova, I.D.Lushnikova, I.P.Rachenko, V.P.Simonov, N.N.Tarasevich, I.F.Krivosos, S.B.Yelkanov, Y.N.Kulyutkinlar ta'lim oluvchilarning ilmiy ijodini tashkil etish, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida ilmiy ijod jarayoni rivojlanishining samarali metodlarini ishlab chiqishgan [1;3;5;8;10;14;15;16;19;20;21;22;26].

### NATIJALAR

Bo'lajak tarix o'qituvchilari informatsion-analitik ko'nikmalar asosida o'tmish saboqlarini o'rganishga ehtiyojni kuchaytiruvchi qator asoslar mavjud. Bu bevosita insoniyatning tarixiy tajribasini o'rganish, hayot mantig'ini anglash bilan bog'liq bo'lgan serqirra va murakkab jarayondir. Aynan tarixiy tajriba ijtimoiy dunyoni o'quvchi tomonidan ma'naviy, ma'rifiy, ruhiy, amaliy o'zlashtirish va bilishni yangi bosqichga ko'taradi. Natijada talaba-yoshlarda nafaqat bilimlar, balki qadriyatlar haqidagi tasavvurlar ham o'ziga xos tarzda shakllana boshlaydi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarda o'tmishni anglashga doir bilimlar va qadriyatlar bevosita tarixiy hodisalarni kuzatish, ularni tahlil etish hamda zarur xulosalar chiqarish natijasida yuzaga keladi. Tarixiy tajriba, tarixiy jarayonlardan chiqariladigan xulosalar faqatgina bilimlar va qadriyatlar tayyor andozasini o'zida ifoda etibgina qolmay, shu bilan birga bo'lajak tarix o'qituvchilar tomonidan dunyoni amaliy o'zlashtirish jarayonida ma'naviy qudrat vazifasini bajaradi. Natijada bo'lajak tarix o'qituvchilarda demokratik jamiyat fuqarosi uchun xos bo'lgan yaratuvchanlik, bunyodkorlik fazilatlarini rivojlanadi, aniqrog'i tarixiy tajriba ana shunday sifatlarni rivojlantirish uchun ruhlantiruvchi, ilhomlantiruvchi, da'vat etuvchi vosita rolini bajaradi.

### MUHOKAMA

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda ko'plab psixologik omillar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Jumladan, o'z-o'zini anglay bilishi, ya'ni o'z-o'ziga baho berish mayli va istagi kabi ustanovkalar; o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslashi; fikrlarini erkin, ochiq, mazmunli ifodalashi; o'zgalarning fikrini eshita olishi va murosa qila olish kabi emotsional xususiyatlar, shaxs motivatsion sohasi rivoji mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni bo'lajak tarix o'qituvchining intellektual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji; idrok etishning rivoji; tasavvurlarning rivoji; diqqatning rivojini aks ettiradi[25]. Intellekt – shaxs xususiyati bo'lib, obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari va qonuniyatlarini bilan ongimizda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyatdir.

Intellektning har xil odamlarda turli darajada rivojlanganligi tufayli bir nechta sifatlari mavjuddir:

Intellektning tushunariligi – fikrlar oddiyligi va ishonchiligi, unda qandaydir o'ylangan fikr yo'qligi. Bu nafaqat intellektual, balki qandaydir ma'noda axloqiy xususiyatdir. Chunki aqlning tushunariligi odatda nafaqat harakat uchun javobgarlik, balki fikrlar uchun ham javobgarlikni his qilishdir;

Intellektning mantiqiyligi – tafakkurdagi qat'iy davomiylik va sistemalilikdir;

Intellektning chuqurligi yoki o'ylovchanlik – predmetlarda va hodisalarda o'ziga xoslikni bilish qobiliyati;

Intellektning kengligi – masalaning barcha tomonlarini hisobga olgan holda fikr yuritish qobiliyati;

Intellektning yumshoqligi va egiluvchanligi – shablonlik, stereotiplikning yo'qligi, fikrlashni o'zgartirish qobiliyati;

Mustaqillik va originallik. Bu oddiy aql yumshoqligi bo'lmasdan, balki yangilik aqliy faoliyatning ijodiy xususiyati;

Intellektning tanqidiyligi – tekshirilmagan, shunchaki olingan hukmlar yo'qligi, chuqur o'rganilgan, tahlil qilingan, inkorlarga jiddiy munosabatning mavjudligidir. Inson aqlining bu barcha individual xususiyatlari mehnat jarayonida paydo bo'ladi, u shakllanadi va rivojlanadi[11].

Tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirish emotsionallik bilan aloqadorlikdadir. Bo'lajak tarix o'qituvchisidagi salbiy his-tuyg'ularini yo'qotish, o'rnini ijobiyarlari bilan to'ldirish zarur. Masalan, odamlarga nisbatan muhabbatni uyg'otish kerak. Shu bilan birga, bo'lajak tarix o'qituvchida turli vaziyatlarda o'ziga ishonch bilan qarash tuyg'usini tarkib toptirish zarur. Agar boshqalarni sevish – bu boshqalarga nisbatan munosabatni ifodalasa, o'z-o'ziga ishonch esa, o'z-o'ziga munosabatni anglatadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining motivatsion faoliyatining rivoji ham tarixiy-analitik tafakkurni

rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar sirasiga kiradi.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, insonni asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig'indisi. Motiv "esa fransuzchadan tarjima qilinganda, undovchi kuch, sabab degan ma'noni bildiradi". Tadqiqotchi olimlar E.G'oziyev va R.Asomovalarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, motiv va motivatsiya tizimi shaxsning faoliyati, muomalasi, xatti-harakatining ichki regulatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojini qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu-tilak, mayl, his-tuyg'u, ustanovka, ideal, imon-e'tiqod, vijdon, maqsad qo'ya olish va boshqalarni amaliyotda ro'yobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi[4].

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirishda munosabat motivatsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Bo'lajak tarixchida tarixiy voqelikka subyektiv munosabatni qaror toptirish uchun "odam – inson – shaxs – individuallik – subyekt – komillik" iyerarxiyasiga rioya qilish, shaxsga subyektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, «subyekt-subyekt» aloqasini vujudga keltirish, har qanday subyekt – shaxs, lekin har qaysi shaxs subyekt emasligi muammosini yechish, shaxs subyekt bo'lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozitsiya, qat'iyatlilik, dunyoqarash va ularni hayotga tatbiq etish imkoniyati mavjudligini tan olish kabi mulohazalar shaxs munosabatlari motivatsiyasi talqinida muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirishda V.M.Karimova rahbarligida yangicha ijtimoiy-psixologik munosabatlarga bag'ishlangan tadqiqotlar ham diqqatga sazovordir. Ular zamirida yotgan mulohazalarni ta'kidlash orqali O'zbekistonda munosabat tizimi motivatsiyasi shakllanishining tarixi, buguni va kelajagi haqida ma'lum tasavvurlarni shakllantirish mumkin[13]. Zero, inson munosabatlari uning xulq-atvorida, ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarida muhim boshqariluvchilik rolini o'ynaydi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirishda pedagogik omillarning yetakchiligini ham alohida e'tirof etish zarur. Mazkur omillar yuqorida bayon etilgan ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy va psixologik omillarni yaxlitlikda o'zida ifoda etishi bilan ham xarakterlidir. Tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirishda milliy tarbiya, tarixiy tarbiya, bo'lajak tarix o'qituvchining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish hamda interfaol ta'lim sharoitida pedagog faoliyatini modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi.

Tarixiy-analitik tafakkur rivojida tarixiy tarbiyaning roli beqiyosdir. Garchi mazkur tushunchaga pedagogik adabiyotlarda keng o'rin berilmasa-da, uni zamonaviy sharoitda qo'llashga alohida zaruriyat borligini e'tirof etib o'tish lozim. "Tarix ta'limi" tushunchasini qo'llash amaliyotda keng uchraydi. Ko'plab tadqiqotlarda mazkur tushunchadan foydalanilishiga guvoh bo'lish mumkin[18]. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlab o'tganidek, "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan oyrılmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir"[17]. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, tadqiqotda "tarixiy tarbiya" masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Zero, tarixiy tarbiya yordamida millat birinchidan, "Biz kimmiz?", "Kimlarning avlodimiz?" degan savollarga javob izlash zamirida o'zining tarixiy ildizlarini anglashi, ikkinchidan, o'tmishda ro'y bergan jarayonlarni tahlil etish orqali ulardan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarishi, uchinchidan, real voqelik, uni keltirib chiqargan sabablar, omillarni chuqurroq anglab yetishi va yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqargan holda ertangi kunining optimal yo'llarini belgilashi mumkin bo'ladi.

Tarixiy tarbiyani tashkil etishda xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunolari, ixcham shakldagi pand-nasihatlar, matallar, rivoyatlar, tarixiy qo'shiqlar, asrlar davomida sayqallashgan urf-odatlar mazmunida mujassamlashgan ajdodlar tajribasiga tayanib ish ko'rish nihoyatda muhim.

Tarixiy tarbiyaning tarixiy-analitik tafakkur rivojidagi o'rni haqida gap ketar ekan, masalaning quyidagi jihatiga ham e'tibor berish zarur. Ingliz olimi Ralf Emerson "tamaddunning haqiqiy darajasi boylik bilan emas, shaharlarning mahobati bilan ham emas, mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi", – deb yozgan edi[27]. Ana shu qiyofani shakllantirishga qaratilgan tarixiy tarbiya ikki xil – salbiy hamda ijobiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Shaxs, ijtimoiy guruh yoki millat tarixiy xotirasini bir yoqlama, noxolis, noadekvat shakllantirishga qaratilgan tarbiya mohiyatan salbiy mazmunga egadir. Chunki, bunda o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishda bir yoqlama tarixiy tarbiya amalga oshiriladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yoshlikda bola ongiga singdirilgan noto'g'ri axborotni o'chirib tashlash oson kechmaydi. O'sib kelayotgan yoshlarga tarixni noxolis singdirishni millat tarixiy xotirasidagi bir ustunning ildiziga bolta

urish, uni yemirishga qaratilgan siyosiy xatti-harakat sifatida baholash mumkin[1].

Tarixiy tarbiya ijobiy mazmunga ega bo'lsa, barcha sa'y-harakatlar xolislik, obyektivlik, chuqur ilmiy tahlil asosida olib boriladi, tarixiy tafakkur rivoji o'zgacha xarakter kasb etadi. Ya'ni, bu yo'lda barcha harakatlar tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga bog'liq holda tarixiy haqiqatni bilish, uni muhrlash, yosh avlodga xolisona yetkazishga yo'naltirilgan holda olib boriladi. Bunda buyuk mutafakkirlar ta'limotiga, boy milliy va umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga asoslaniladi. Milliy tiklanish jarayoni orqali milliy tarixiy tafakkurdagi kemtiklarni to'ldirish jarayoni boshlanadi. Zero, xolis singdirilgan tarixiy tarbiya insonda xatolardan himoyalani, to'g'ri yo'lni belgilab olish qobiliyatini shakllantiradi.

### XULOSA

Ta'lim sifatiga zamonaviy yondashuvning tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak tarix o'qituvchilarini bilim, ko'nikma va tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish hamda hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish, ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish, ularni tahlil qila bilish samarali omillardan hisoblanadi. Ushbu holat bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faolligini oshiradi, informatsion-analitik kompetentligini rivojlanishiga asos yaratadi, bu esa, talabalarning o'z kasb yo'nalishini tanlashlarida o'ta muhimdir.

Xulosa qilganda, bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi va ularni umumiy holatda oliy ta'limda tizimlashtirish, bu jarayonga qaratilgan innovatsion pedagogik jarayonni yaratish zarur hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva D.S. Milliy tarixiy xotiraning mohiyati va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Diss. ... fal. fan. nom. – T., 2006. – 77 b.
2. Abdikarimov B.A., Abdirov A.M., Baubekova G.D. Professionalnaya pedagogika: Uchebnoye posobiye. – Astana, KazATU, 2008. – 367 s.
3. Andreyev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. – Kazan: Izd-vo KGU, 1996. – 568 s.
4. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Avtoref. psix. fan. nom. ... diss. – T., 2002. – 28 b.
5. Bragina G.V. Masterstvo uchitelya na uroke. – M.: Tvorcheskaya pedagogika, 1992. – 40 s.
6. Davlatov O.G'. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish: Avtoref. ped.fan.bo'yicha fal.dok. – Toshkent, 2018. – 57 b.
7. Davidov V.V. Teoriya razvivayushhego obucheniya. – M.: INTOR, 1996. – 544 s.
8. Yelkanov S.B. Osnovi professionalnogo samovospitaniya budushhego uchitelya. – M.: Prosvesheniye, 1989. – 190 s.
9. Jabakov V.YE. Pedagogicheskoye masterstvo uchitelya fizicheskoy kulturi. /Uchebnoye posobiye. – Chelyabinsk: izd-tvo Yujno-Uralskogo GPU, 2016. – 195 s.
10. Zanina L.V., Menshikov N.P. Osnovi pedagogicheskogo masterstva. /Seriya "Uchebniki, uchebniye posobiya". – Rostov n/D: Feniks, 2003. – 288 s.
11. Iskenderov J.S. Pedagogika kolleji o'quvchilarida xarakterning intellektual va irodaviy xususiyatlarini shakllantirish: Psix. fan. nom. ...diss. – T., 2009. – 37 b.
12. Ismailov A.F. Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish: Avtoref. ped.fan.bo'yicha fal.dok. – Toshkent, 2018. – 50 b.
13. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet, 1999. – 122 b.
14. Korepanova M.V. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: uchebnik dlya studentov.2-ye izd. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2012. – 240 s.
15. Kulyutkin Y.N. Razvitiye tvorcheskogo potentsiala uchitelya v protsesse yego posleddiplomnogo obrazovaniya // Problemi neprerivnogo obrazovaniya. – Pskov: 1995. №4. – S. 3.
16. Lushnikova I.D. Pedagogicheskiye osnovi professionalno-lichnostnogo razvitiya uchitelya na poslevuzovskom etape. //Avtoref. diss. dok. ped. nauk – M.:1993. 32 s.
17. Maxmudxo'ja Behbudiy. Istiqlol qahramonlari. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 280 b.
18. Mahkamov S.T. Tarix ta'limida kurslararo uzviylikni ta'minlashning didaktik asoslari (7-sinf tarix kurslari misolida): Ped. fan.nom. ...dis. – T., 2005. – 70 b.
19. Nikitina N.N. Vvedeniye vpedagogicheskuyu deyatel'nost: Teoriya i praktika. Uchebnoye posobiye. – M.: 224 s.
20. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: Uchebnoye posobiye. //Pod red. Zyazyuna I.A.– M.; Prosvesheniye, 2012. – 302 s.
21. Rachenko I.P. Diagnostika razvitiya pedagogicheskogo tvorchestvo uchitelya. – Pyatigorsk, 1992.- 196 s.
22. Simonov V.P. Diagnostika lichnosti i professionalnogo masterstva prepodavatelya. – M.: MPA, 1995. – 189 s.
23. Tarasevich N.N., Krivonos I.F. Uchitelyu o pedagogicheskoy tekhnike. – M.: Pedagogika, 1987. – 216 s.
24. Shonazarov Q.R. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash.Diss.ped.f.n. –Toshkent, 2002. -134 b.
25. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy. – SPb.: KARO, 2005. – 56 s.
26. Yakusheva S.D. Osnovi pedagogicheskogo masterstva.– Moskva, Akademiya, 2012. – S. 256.
27. Winter J. Sites of Memory, Sites of Mourning: The Great War in European cultural history – Cambridge, 1995. – 326 p.